XALQ DEPUTATLARI BUXORO VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 26-dekabr VII-4-026-2-0-K/24 Buxoro viloyati

Buxoro viloyatining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, Oʻzbekiston Respublikasining “2025-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat budjeti toʻgʻrisida”gi Qonuniga muvofiq xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. Oʻzbekiston Respublikasining “2025-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat budjeti toʻgʻrisida”gi Qonuni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat hokimining moliya-iqtisod va kambagʻallikni qisqartirish boʻyicha birinchi oʻrinbosari - viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshligʻi B.Axmedovning Buxoro viloyatining 2025-yilgi mahalliy budjeti toʻgʻrisidagi axboroti maʼlumot uchun qabul qilinsin.

3. Oʻzbekiston Respublikasining “2025-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat budjeti toʻgʻrisida”gi Qonunida Buxoro viloyati mahalliy budjetining 2025-yilgi daromadlari 4573,3 mlrd.soʻm va xarajatlari 5267,1 mlrd.soʻmga maʼlumot uchun qabul qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 693,8 mlrd.soʻm miqdorida, shundan aksiz soligʻi tushumlari hisobidan ajratiladigan transfertlar 175,5 mlrd.soʻm miqdorida tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

4. Oʻzbekiston Respublikasi “2025-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat budjeti toʻgʻrisida”gi Qonunining 12-moddasiga muvofiq:

Soliqlarning quyidagi turlari tuman va shahar budjetlariga toʻliq hajmda oʻtkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk soligʻi;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer soligʻi;

mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad toʻgʻrisidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan toʻlanadigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan toʻlanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻi;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

aylanmadan olinadigan soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq *(yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno)*;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i *(yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno)*;

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i tushumlarining kamida 50 foizi *(yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno)*;

davlat aktivlarini ijaraga berishdan tushumlar.

Quyidagilar Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika budjetiga, viloyatlarning viloyat budjetlariga va Toshkent shahrining shahar budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq *(yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar);*

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i *(yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar);*

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

tamaki mahsulotlari *(import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari)* uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar, tegishincha o‘tgan moliya yilining 1-iyul holatiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligidan olingan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri aholisi sonining respublika aholisi sonidagi ulushiga muvofiq.

Bunda daromadlar bo‘yicha prognozning bajarilmagan qismi Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika budjetiga, viloyatlarning viloyat budjetlariga va Toshkent shahrining shahar budjetiga respublika budjeti mablag‘lari hisobidan qoplanadi, daromadlar bo‘yicha prognozning oshirib bajarilgan qismi esa respublika budjeti ixtiyorida qoladi.

Soliqlar Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika budjetiga, viloyatlarning viloyat budjetlariga va Toshkent shahrining shahar budjetiga quyidagi ulushlarda:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushgan tushumlarning *(jismoniy shaxslar mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari)* Navoiy viloyatida 58 foizi, Toshkent viloyatida 44 foizi, Toshkent shahrida 10 foizi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va boshqa viloyatlarda 100 foizi;

foyda solig‘idan tushgan tushumlarning *(O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatni amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari)* Navoiy viloyatida 58 foizi, Toshkent viloyatida 44 foizi, Toshkent shahrida 10 foizi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va boshqa viloyatlarda 100 foizi;

alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo *(import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari)* realizatsiyasi uchun aksiz solig‘ining Toshkent viloyati va Toshkent shahrida 5 foizi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va boshqa viloyatlarda 30 foizi o‘tkaziladi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga qonunchilikda belgilangan miqdorlarda taqsimlanadigan quyidagi daromadlar respublika budjeti va Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

davlat bojlari;

jarimalar;

yigʻimlar;

davlat daromadiga oʻtkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushumlar.

Qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat aktivlarini sotishdan mahalliy budjetlarga tushadigan tushumlar tuman va shahar budjetlari hamda Qoraqalpogʻiston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari oʻrtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.

Qoraqalpogʻiston Respublikasi Joʻqorgʻi Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari:

tegishli darajadagi mahalliy budjetlarga ajratiladigan soliqlarni va boshqa turdagi daromadlarni hamda budjetlararo transfertlarni taqsimlashga;

daromadlarning prognozini oshirib bajarishdan olingan mablagʻlarning bir qismini tuman va shahar budjetlariga hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish uchun berishga haqli.

Xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari tuman hamda shaharlarda mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara toʻlovining eng kam stavkalariga:

ommaviy dam olishga va (yoki) turizmga ixtisoslashtirilgan ayrim hududlar boʻyicha Toshkent shahri uchun belgilangan miqdorlargacha oʻsib boruvchi koeffitsiyentlarni joriy etishga haqli.

Qoraqalpogʻiston Respublikasi Joʻqorgʻi Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari tuman va shaharlar budjetlariga toʻliq biriktirilgan daromadlarni Qoraqalpogʻiston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari va Toshkent shahrining shahar budjetiga yoʻnaltirishi taʼqiqlanadi (*bunda daromadlari xarajatlaridan yuqori boʻlgan shahar va tumanlar mustasno).*

Agar qonunchilikda daromadlarning budjet darajalari boʻyicha taqsimlanishi nazarda tutilmagan boʻlsa:

Oʻzbekiston Respublikasi Davlat budjetiga oʻtkazilishi lozim boʻlgan daromadlarning turlari respublika budjetiga oʻtkaziladi;

mahalliy budjetlarga oʻtkazilishi lozim boʻlgan daromadlarning turlari tegishincha Qoraqalpogʻiston Respublikasining respublika budjetiga, viloyatlarning viloyat budjetlariga va Toshkent shahrining shahar budjetiga oʻtkaziladi.

Budjet tizimi budjetlariga ortiqcha yoki notoʻgʻri toʻlangan tushumlarning summalarini qaytarish ularni qaytarish sanasida amalda boʻlgan ajratmalar normativlariga muvofiq tegishli budjet tizimi budjetlaridan, bekor qilingan daromad turlari boʻyicha esa respublika budjetidan amalga oshiriladi.

Davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushi mavjud boʻlgan yuridik shaxslar *(shu jumladan ularning tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan)* 2025-yilning 1-iyuliga qadar 2024-yil yakunlari boʻyicha oʻz sof foydasining 50 foizi miqdorida ajratmalar va davlat ulushi boʻyicha dividendlar hisoblanadi hamda 2025-yilning 1-sentabridan kechiktirmay tegishli darajadagi budjetlarga oʻtkaziladi.

Shuningdek ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushi mavjud boʻlgan oltin va mis qazib oluvchi korxonalar 2024 va 2025-yillardagi davlat ulushi boʻyicha sof foydasining 100 foizini Oʻzbekiston Respublikasi Davlat budjetiga dividendlar tarzida oʻtkazadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushi mavjud boʻlgan oltin va mis qazib oluvchi korxonalar uchun dividendlar toʻlash miqdori va davriyligini qonunchilikda belgilangan tartibda aniqlashga haqliligi maʼlumot va ijro uchun qabul qilinsin.

5. Quyidagilar:

Buxoro viloyatining 2025-yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy prognoz koʻrsatkichlari hamda 2026-2027-yillarga moʻljallari 1-ilovaga;

Buxoro viloyatining viloyat budjeti daromadlarining 2025-yildagi asosiy prognoz koʻrsatkichlari 2-ilovaga;

2025-yilgi Buxoro viloyatining viloyat budjetidan budjet tashkilotlari va mablagʻlarini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 3-ilovaga;

2025-yilda umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy toʻlovlar hamda soliq boʻlmagan toʻlovlar boʻyicha belgilanadigan ajratma meʼyorlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratma meʼyorlari boʻyicha viloyat mahalliy budjeti bilan tuman va shaharlar mahalliy budjetlarining taqsimotini oʻrnatilgan tartibda “Davlat moliyasini boshqarish” axborot tizimiga Buxoro viloyati Gʻaznachilik xizmati boshqarmasi tomonidan kiritilishi belgilab qoʻyilsin.

6. Buxoro viloyat mahalliy budjetining 2025-yil daromadlari va xarajatlarning chegaraviy hajmi 5-ilovaga muvofiq maʼlumot uchun qabul qilinsin.

7. 2025-yilda Buxoro viloyati mahalliy budjeti hamda shahar va tumanlar budjetlarida yoʻl qoʻyiladigan eng kam mablagʻlar miqdori 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

8. Viloyatning viloyat budjeti zaxira jamgʻarmasi hajmi 2025-yil uchun 24,5 mlrd.soʻm miqdorida belgilansin.

Bunda:

shahar va tuman mahalliy budjetlarining 2025-yil uchun zaxira jamgʻarmalari tasdiqlangan umumiy xarajatlarining *(bundan jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish mablagʻlari mustasno)* kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin;

viloyat, tuman va shahar budjetlarining zaxira jamgʻarmalari mablagʻlarini Budjet kodeksining 73-moddasiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib boʻlmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur boʻlgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun ajratilishi taʼminlansin.

9. Viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambagʻallikni qisqartirish masalalari boʻyicha birinchi oʻrinbosari B.Axmedov, viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (F.Majidov), viloyat soliq boshqarmasi (D.Yuldashev) tuman va shahar hokimliklari bilan birgalikda 2025-yil mahalliy budjet uchun belgilangan koʻrsatkichlarni oʻz vaqtida va samarali bajarilishini taʼminlash choralarini koʻrsin.

10. Tuman va shahar hokimliklari, masʼul boshqarma va tashkilotlar 2025-yil uchun ajratilayotgan budjet mablagʻlaridan maqsadli va samarali foydalanish, budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va masʼuliyatni yanada kuchaytirish, tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy toʻlovlarning toʻliq tushimini taʼminlash

hamda budjet daromadlar bazasini oshirish va qoʻshimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida eʼtibor qaratsin.

11. Viloyat soliq boshqarmasi (D.Yuldashev)ga hududiy soliq organlari bilan birgalikda Oʻzbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlardan kelib chiqib:

soliqlarning toʻgʻri hisoblanishi va toʻliq hamda oʻz vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini oʻrnatish;

yer soligʻi, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari boʻyicha doimiy tahlillar oʻtkazgan holda, soliqlarni toʻliq hisoblanishini taʼminlash hamda ushbu soliq toʻlovlari boʻyicha soliq qarzdorligiga yoʻl qoʻymaslik choralarini koʻrish;

soliq toʻlovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida toʻliq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazorati oʻrnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini oʻtkazish;

yer va mol-mulk soligʻining soliq bazasini oshirish, xatlov ishlarini samarali va muntazam tashkil etib borish topshirilsin.

12. Majburiy ijro byurosi viloyat boshqarmasi (O.Mardonov), viloyat soliq boshqarmasi (D.Yuldashev) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy toʻlovlar boʻyicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar koʻrib borsin hamda har chorak yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi boʻyicha barcha choralarni koʻrsin.

13. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasi (F.Norov)ga Boʻsh turgan obyektlaridan samarali foydalanishni tashkil etish markazi viloyat hududiy boshqarmasi bilan birgalikda:

boʻsh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash boʻyicha doimiy ravishda xatlov ishlarini tashkil etish;

xatlov natijalariga koʻra viloyatda mavjud boʻsh turgan davlat mulki obyektlari roʻyxatini shakllantirish, ijaraga berish yoki sotish boʻyicha tegishli takliflar tayyorlash topshirilsin.

14. Amu-Buxoro irrigatsiya tizimlari Havza boshqarmasi (E.Fayzillayev), viloyat soliq boshqarmasi (D.Yuldashev) tuman va shahar hokimlari bilan birgalikda viloyatda sugʻorishga sarflanayotgan suv hajmlari boʻyicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur isteʼmol hajmlari boʻyicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni toʻliq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga toʻliq undirib olinishini taʼminlasin.

Bunda, qishloq xoʻjaligi korxonalari tomonidan isteʼmol qilinayotgan suv resuslari hajmlari va ushbu hajmlar boʻyicha hisoblanayotgan suv soliqlari boʻyicha doimiy tahlillar oʻtkazishga alohida eʼtibor qaratsin.

15. Viloyat ichki ishlar boshqarmasi (I.Tursunov) hamda boshqa vakolatli davlat organlari viloyatda budjetga hisoblangan boj, jarima va yigʻimlarni oʻz vaqtida toʻliq mahalliy budjetga undirish choralarini koʻrib borsinlar.

16. Viloyat soliq boshqarmasi (D.Yuldashev), viloyat qishloq xoʻjaligi boshqarmasi (A.Javodov) tuman va shahar hokimliklari bilan hamkorlikda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 709-sonli qaroriga asosan qishloq xoʻjaligi yerlarini ijaraga berishda hisoblangan ijara va qoʻshimcha toʻlov summalarini belgilangan grafiklarga muvofiq mahalliy budjetlarga undirish choralarini koʻrsinlar.

17. Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasining viloyat hududiy boshqarmasi tuman va shahar hokimliklari bilan birgalikda tashqi reklama obyektlarini to'liq xatlovdan o'tkazgan holda, barcha obyektlar bo'yicha shartnomalar tuzish choralarini ko'rsin hamda ushbu shartnomalar bo'yicha yig'imlarni budjetga to'lanishi ustidan doimiy nazorat o'rnatsin.

18. O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish Departamentining Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi viloyat boshqarmasi (M.Abdiyev) budjetdan ajratilgan mablag'larni maqsadli ishlatilishini nazorat qilish va amalga oshirilayotgan ishlar jumladan, mablag' oluvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan kamchiliklar hamda ko'rilgan choralar yuzasidan har chorakda xalq deputatlari viloyat Kengashiga axborot kiritib borilishini ta'minlasin.

19. Xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (O.Xamidov) budjetdan ajratilgan mablag'larning maqsadli ishlatilishi bo'yicha kiritilgan axborotlardan kelib chiqib, hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchilarning budjet mablag'lari samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan hisobotlarini komissiya yig'ilishilarida ko'rib chiqib, mazkur masalalarning sessiya muhokamasiga kiritilishi bo'yicha takliflar berib borsin.

20. Hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchilar budjet mablag'larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan yillik faoliyati to'g'risida 2025-yil 1-martga qadar xalq deputatlari viloyat Kengashiga hisobot berib borsinlar.

21. Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatlari budjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga tushumlar to'liq va o'z vaqtida tushishi hamda budjet mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan doimiy deputatlik nazoratini o'rnatsinlar.

22. Viloyat hokimligi axborot xizmati (O.Jo'rayev), "Buxoronoma" va "Buxarskiy vestnik" gazetalari tahririyati (Sh.Sulaymonov) mazkur qarorning gazeta va viloyat hokimligining rasmiy veb-saytida e'lon qilinishini ta'minlasin.

23. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (O.Xamidov) zimmasiga yuklatilsin.

24. Ushbu qaror 2025-yil 1-yanvardan e'tiboran kuchga kirishi belgilansin.

Kengash raisi ASHUROV JAMOL RAJABBOYEVICH

Xalq deputatlari Buxoro viloyati
Kengashining
2024-yil 26-dekabrdagi
VII-4-026-2-0-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Buxoro viloyatining 2025-yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy prognoz koʻrsatkichlari hamda 2026-2027-yillarga moʻljallari

№	Koʻrsatkichlar	2025-yil uchun prognoz	Moʻljal	
			2026-yil	2027-yil
1.	Yalpi hududiy mahsulot, mlrd.soʻm	81 216,1	92 697,1	105 316,9
2.	Yalpi hududiy mahsulotning oʻsish surʼati, foizda	106,1	106,1	106,2
3.	Isteʼmol narxlari indeksi, dekabrda avvalgi yil dekabr oyiga nisbatan, foizda	109,4	109,2	109,3
4.	Sanoat mahsulotlarining oʻsish surʼati, foizda	105,6	106,5	107,0
5.	Qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaliklarida ishlab chiqarishning oʻsish surʼati, foizda	104,0	104,1	104,2
6.	Chakana tovar aylanmasining oʻsish surʼati, foizda	107,2	107,5	107,8

Xalq deputatlari Buxoro viloyati
Kengashining
2024-yil 26-dekabrdagi
VII-4-026-2-0-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Buxoro viloyatining viloyat budjeti daromadlarining 2025-yildagi asosiy prognoz koʻrsatkichlari

ming soʻmda

№	Daromad turlari	Kontingent reja *	Mahalliy reja
1.	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	284 388 000,0	342 310 000,0
2.	Aylanmadan olinadigan soliq		
3.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 168 570 000,0	1 371 062 029,0
4.	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	828 284 000,0	
5.	Aksiz solig‘i, jami	505 213 000,0	353 262 570,0
	shu jumladan:		
	- alkogol mahsulotlaridan soliq	*209 291 000,0*	*62 787 300,0*
	- benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq	*295 922 000,0*	*290 475 270,0*
6.	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	106 741 000,0	242 715 300,0
7.	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq		
8.	Yuridik shaxslar yer solig‘i	247 256 000,0	209 203 000,0
9.	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i		
10.	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	11 530 000,0	
11.	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	63 750 000,0	
12.	Davlat boji	154 448 000,0	135 783 000,0
13.	Jarimalar	132 087 000,0	132 087 000,0
14.	Ijara to‘lovi		
15.	Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad	4 771 000,0	
16.	Yig‘imlar	87 234 000,0	71 128 000,0
17.	Xususiylashtirish		
18.	Boshqalar		
JAMI:		**3 594 272 000,0**	**2 857 550 899,0**
19.	Tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar		693 773 917,0

	shundan, tamaki mahsulotlari uchun aksiz solig‘idan		*175 467 000,0*
HAMMASI:		**3 594 272 000,0**	**3 551 324 816,0**

* viloyat soliq boshqarmasining kontingent daromadlar rejasi

Xalq deputatlari Buxoro viloyati
Kengashining
2024-yil 26-dekabrdagi
VII-4-026-2-0-K/24 -son qaroriga
3-ilova

2025-yilgi Buxoro viloyatining viloyat budjetidan budjet tashkilotlari va mablagʻlarini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming soʻm

№	Hududiy budjet mablagʻlari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
Xarajatlar miqdori, jami		**3 551 324 816**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**3 491 824 816**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	59 500 000
	Tuman va shaxar mahalliy budjetlariga tartibga soluvchi transfertlar	
1	**Maktabgacha va maktab taʼlimi boshqarmasi**	**192 989 682**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**192 989 682**
	shundan:	
	"Yoshlik" sport markazi xarajatlari	492 209
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
2	**Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar hududiy boshqarmasi**	**149 798 002**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**149 798 002**
	shundan:	
	Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar boshqarmasini saqlash xarajatlari	1 322 000
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
3	**Sogʻliqni saqlash boshqarmasi**	**185 285 162**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**132 785 162**
	shundan:	
	Viloyat sogʻliqni saqlash boshqarmasi markaziy apparati	3 925 000
	Respublika oʻrta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi filiali	2 796 943
	Bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi	0

	Sog‘likni saqlash boshqarmasi kutubxonasi	367 017
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	52 500 000
4	**Madaniyat boshqarmasi**	**61 592 597**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**61 592 597**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
5	**Ma’naviyat va ma’rifat markazi**	**3 079 652**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**3 079 652**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
6	**Sport boshqarmasi**	**148 801 357**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**148 801 357**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
7	**Yoshlar ishlari agentligining hududiy boshqarmasi**	**3 162 000**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**3 162 000**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
8	**Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi**	**11 970 000**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**11 970 000**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
9	**Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi**	**47 367 945**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**47 367 945**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
10	**Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi**	**92 616 332**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**85 616 332**
	shundan:	
	Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash	37 400 000
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	7 000 000
11	**Transport boshqarmasi**	**1 572 000**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**1 572 000**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
12	**Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi**	**42 524 647**
	shu jumladan:	

	joriy xarajatlar	**42 524 647**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
13	**Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi**	**2 341 652 799**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**2 341 652 799**
	shundan:	
	Davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida fuqarolar yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash xarajatlari	10 000 000
	Advokatlik xizmatlari xarajatlari	2 500 000
	Viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasini saqlash xarajatlari	11 003 367
	Budjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasi hududiy boshqarmasini saqlash xarajatlari	15 753 826
	Gʻaznachilik xizmati qoʻmitasining hududiy boshqarmasi	9 090 000
	Kadastr agentligi Buxoro viloyati boshqarmasini saqlash xarajatlari	2 497 000
	Davlat qarzlarini (asosiy qarz) soʻndirish boʻyicha xarajatlar	0
	Xalqaro moliyaviy institutlardan Oʻzbekiston Respublikasi kafolati asosida olingan kreditlar boʻyicha toʻlovlar	126 468 286
	Davlat ichki qarziga xizmat koʻrsatish boʻyicha boshqa asosiy toʻlovlar	0
	Xalqaro moliyaviy tashkilotlardan Oʻzbekiston Respublikasi kafolati ostida olingan kreditlar boʻyicha asosiy toʻlovlar	57 519 026
	Tibbiy sugʻurta jamgʻarmasiga oʻtkaziladigan transfertlar	2 106 821 294
	Tuman va shaxar mahalliy budjetlariga tartibga soluvchi transfertlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
14	**Raqobatni rivojlantirish va isteʼmolchilar huquqlarini himoya qilish boshqarmasi**	**1 929 000**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**1 929 000**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
15	**Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hududiy boshqarmasi**	**1 728 000**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**1 728 000**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
16	**Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi**	**6 125 153**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**6 125 153**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
17	**Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi**	**8 587 000**

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**8 587 000**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
18	**Adliya boshqarmasi**	**14 131 275**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**14 131 275**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
19	**Soliq boshqarmasi**	**86 287 569**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**86 287 569**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
20	**Hokimiyat**	**42 429 379**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**42 429 379**
	shundan:	
	Viloyat hokimligining saqlash xarajatlari	11 525 000
	Hokimlik ijtimoiy moslashish markazi boʻlimlari	123 432
	Fuqarolarning oʻzini-oʻzi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish oʻquv kursi	448 082
	Zaxira jamgʻarmasi	24 563 898
	Xalq deputatlari Kengashi kotibiyatini saqlash xarajatlari	701 000
	Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qoʻllab-quvvatlash jamoat fondi	5 067 967
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	0
21	**Hokimiyat** (kommunal xizmatlar va subsidiyalar)	**57 865 336**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**57 865 336**
	shundan:	
	Avtobus yoʻnalishlarini subsidiyalash	2 949 336
	Issiqlik taʼminoti tizimi tashkilotlari xarajatlari	2 300 000
	Issiqlik taʼminoti xizmati uchun pasaytirilgan tariflarni qoʻllash natijasida yuzaga keladigan zararni qoplash xarajatlari (subsidiya)	51 882 000
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
22	**Hokimiyat** (Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	**21 295 745**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**21 295 745**
	shundan:	
	Qabul uylarini saqlash xarajatlari	7 942 966
	Axborot-kutubxona markazlari	2 788 680
	Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	9 726 000

	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
23	**Saylov komissiyalari**	**0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**0**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
24	**Ichki ishlar boshqarmasi**	**13 645 440**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**13 645 440**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
25	**Mudofaa ishlari boshqarmasi**	**4 131 573**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**4 131 573**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
26	**Oila va xotin-qizlar qoʻmitasinining hududiy boshqramasi**	**5 979 000**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**5 979 000**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
27	**Boshqa tashkilotlar**	**4 778 171**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**4 778 171**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	

Xalq deputatlari Buxoro viloyati Kengashining
2024-yil 26-dekabrdagi
VII-4-026-2-0-K/24 -son qaroriga
4-ilova

2025 йилда умумдавлат солиқлари ва бошқа мажбурий тўловлар ҳамда солиқ бўлмаган тўловлар бўйича белгиланадиган ажратма меъёрлари

фоиз ҳисобида

№	Ҳудудлар номи	Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи				Фойда солиғи				алкоголь маҳсулотлари (тиводан ташқари)				пиво				бензин, дизель ёқилғиси ва газни охирги истеъмолчига реализация қилишда тўланадиган акциз солиғи				Юридик шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ			
		Туман (шаҳар)лар бюджетига		Вилоятнинг вилоят бюджетига		Туман (шаҳар)лар бюджетига		Вилоятнинг вилоят бюджетига		Туман (шаҳар)лар бюджетига		Вилоятнинг вилоят бюджетига		Туман (шаҳар)лар бюджетига		Вилоятнинг вилоят бюджетига		Туман (шаҳар)лар бюджетига		Вилоятнинг вилоят бюджетига		Туман (шаҳар)лар бюджетига		Вилоятнинг вилоят бюджетига	
		Йирик солиқ тўловчилар	Ҳудудий солиқ тўловчилар	Йирик солиқ тўловчилар	Ҳудудий солиқ тўловчилар	Йирик солиқ тўловчилар	Ҳудудий солиқ тўловчилар	Йирик солиқ тўловчилар	Ҳудудий солиқ тўловчилар	Йирик солиқ тўловчилар	Ҳудудий солиқ тўловчилар	Йирик солиқ тўловчилар	Ҳудудий солиқ тўловчилар	Йирик солиқ тўловчилар	Ҳудудий солиқ тўловчилар	Йирик солиқ тўловчилар	Ҳудудий солиқ тўловчилар	Йирик солиқ тўловчилар	Ҳудудий солиқ тўловчилар	Йирик солиқ тўловчилар	Ҳудудий солиқ тўловчилар	Йирик солиқ тўловчилар	Ҳудудий солиқ тўловчилар	Йирик солиқ тўловчилар	Ҳудудий солиқ тўловчилар
1	Бухоро шаҳар	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	50%	100%	50%
2	Коғон шаҳар	0%	62%	100%	38%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	75%	100%	25%	0%	100%	100%	0%
3	Олот тумани	0%	79%	100%	21%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%
4	Бухоро тумани	0%	43%	100%	57%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%
5	Вобкент тумани	0%	88%	100%	12%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%
6	Ғиждувон тумани	0%	48%	100%	52%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%
7	Коғон тумани	0%	17%	100%	83%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%
8	Қоракўл тумани	0%	81%	100%	19%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	21%	100%	79%	0%	100%	100%	0%
9	Қ-бозор тумани	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%
10	Пешку тумани	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%
11	Ромитан тумани	0%	51%	100%	49%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	32%	100%	68%	0%	100%	100%	0%
12	Жондор тумани	0%	80%	100%	20%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	60%	100%	40%	0%	100%	100%	0%
13	Шофиркон тумани	0%	76%	100%	24%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%

№	Ҳудудлар номи	Юридик шахслардан олинадиган ер солиғи				Қурилиш материаллари бўйича ер кавридан фойдаланганлик учун солиқ				Сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқ				Давлат улуши бўйича дивидендлар				Айланмадан солиқ	Жисмоний шахслардан олинадиган ер солиғи	Жисмоний шахслардан олинадиган мол-мулк солиғи	якка тартибдаги тадбиркорлар учун қатъий миқдорда белгиланган солиқ	Давлат мулки бўйича ижара тўловлари	Давлат божи	Жарималар	Йиғимлар
		Туман (шаҳар)лар бюджетига		Вилоятнинг вилоят бюджетига		Туман (шаҳар)лар бюджетига		Вилоятнинг вилоят бюджетига		Туман (шаҳар)лар бюджетига		Вилоятнинг вилоят бюджетига		Туман (шаҳар)лар бюджетига		Вилоятнинг вилоят бюджетига		Туман (шаҳар)лар бюджетига	Туман (шаҳар)лар бюджетига	Туман (шаҳар)лар бюджетига	Туман (шаҳар)лар бюджетига	Туман (шаҳар)лар бюджетига	Вилоятнинг вилоят бюджетига	Вилоятнинг вилоят бюджетига	Вилоятнинг вилоят бюджетига
		Йирик солиқ тўловчилар	Ҳудудий солиқ тўловчилар	Йирик солиқ тўловчилар	Ҳудудий солиқ тўловчилар	Йирик солиқ тўловчилар	Ҳудудий солиқ тўловчилар	Йирик солиқ тўловчилар	Ҳудудий солиқ тўловчилар	Йирик солиқ тўловчилар	Ҳудудий солиқ тўловчилар	Йирик солиқ тўловчилар	Ҳудудий солиқ тўловчилар	Йирик солиқ тўловчилар	Ҳудудий солиқ тўловчилар	Йирик солиқ тўловчилар	Ҳудудий солиқ тўловчилар								
1	Бухоро шаҳар	0%	89%	100%	11%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%
2	Коғон шаҳар	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%
3	Олот тумани	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%
4	Бухоро тумани	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%
5	Вобкент тумани	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%
6	Ғиждувон тумани	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%
7	Коғон тумани	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%
8	Қоракўл тумани	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%
9	Қ-бозор тумани	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%
10	Пешку тумани	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%
11	Ромитан тумани	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%
12	Жондор тумани	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%
13	Шофиркон тумани	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%

Изоҳ: 1. Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи бўйича 3111302, 3111303, 3111304, 3111305, 3111104, 3111106, 3111300, 3111301, 3111600, 3111800 даромад кодларига тушадиган маблағлар тўлиқ туманлар ва шаҳарлар маҳаллий бюджетларига йўналтирилади;

2. Жарималар (3430103), давлат божи (3422103) ва йиғимлар (3422203) бўйича тушумлар тўлиқ тегишли туманлар ва шаҳарлар маҳаллий бджетларига йўналтирилади;

3. Давлат активларини сотишдан маҳаллий бюджетларга тушумлар ҳамда ер участкаларига бўлган ҳуқуқларни сотишдан тушган пул маблағлари туман ва шаҳарлар ҳамда вилоят бюджети ўртасида тенг улушларда тақсимланади.

4. Бошқа тушумлар бўйича 3450603,3450723,3450725,3450950,3450951, 3511700,3511117,3710303 даромад кодларига тушадиган маблағлар туманлар ва шаҳарлар маҳаллий бюджетларига йўналтирилади.

Xalq deputatlari Buxoro viloyati
Kengashining
2024-yil 26-dekabrdagi
VII-4-026-2-0-K/24 -son qaroriga
5-ilova

Buxoro viloyat mahalliy budjetining 2025-yil daromadlari va xarajatlarning chegaraviy hajmi

ming soʻm

Budjetlar nomi	Mahalliy budjetlarning jami daromadlar	shundan		Mahalliy budjet xarajatlari
		Mahalliy budjet daromadlari	Tartibga soluvchi transfert miqdori	
JAMI:	**5 267 061 217,0**	**4 573 287 300,0**	**693 773 917,0**	**5 267 061 217,0**
Viloyat budjeti	3 551 324 816,0	2 857 550 899,0	693 773 917,0	3 551 324 816,0
Buxoro shahri	229 072 464,0	229 072 464,0		229 072 464,0
Kogon shahri	80 360 933,0	80 360 933,0		80 360 933,0
Olot tumani	107 520 519,0	107 520 519,0		107 520 519,0
Buxoro tumani	123 478 199,0	123 478 199,0		123 478 199,0
Vobkent tumani	132 968 324,0	132 968 324,0		132 968 324,0
Gʻijduvon tumani	189 857 668,0	189 857 668,0		189 857 668,0
Kogon tumani	92 007 843,0	92 007 843,0		92 007 843,0
Qorakoʻl tumani	144 358 530,0	144 358 530,0		144 358 530,0
Qorovulbozor tumani	75 994 177,0	75 994 177,0		75 994 177,0
Peshku tumani	136 833 187,0	136 833 187,0		136 833 187,0
Romitan tumani	128 880 553,0	128 880 553,0		128 880 553,0
Jondor tumani	140 484 514,0	140 484 514,0		140 484 514,0
Shofirkon tumani	133 919 490,0	133 919 490,0		133 919 490,0

Xalq deputatlari Buxoro viloyati
Kengashining
2024-yil 26-dekabrdagi
VII-4-026-2-0-K/24 -son qaroriga
6-ilova

2025-yilda Buxoro viloyati mahalliy budjeti hamda shahar va tumanlari budjetlarida yoʻl qoʻyiladigan eng kam mablagʻlar miqdori

ming soʻmda

№	Hudud nomi	Miqdor
	JAMI:	**27 000 000,0**
	shundan	
1	Viloyat budjeti	10 200 000,0
2	Buxoro shahri	2 214 000,0
3	Kogon shahri	769 000,0
4	Olot tumani	1 011 000,0
5	Buxoro tumani	1 144 000,0
6	Vobkent tumani	1 130 000,0
7	Gʻijduvon tumani	2 214 000,0
8	Kogon tumani	777 000,0
9	Qorakoʻl tumani	1 454 000,0
10	Qorovulbozor tumani	651 000,0
11	Peshku tumani	1 118 000,0
12	Romitan tumani	1 412 000,0
13	Jondor tumani	1 405 000,0
14	Shofirkon tumani	1 501 000,0